Mazkur maqolada banklarning onlayn xizmatlari bozori va unda raqobat muhitining shakllanishi borasida nazariy amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Banklarning raqamli xizmatlari bozoridagi holat va banklar o'rtasidagi raqobat atroflicha o'rganilib, O'zbekiston Respublikasi bank tizimiga oid statistik ma'lumotlar asosida tahlillar amalga oshirildi. Mazkur tadqiqot bo'yicha tahlillarda guruhlash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez hamda boshqa usullardan foydalanilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari, sharhlari va bank tizimiga oid amaliy ma'lumotlar asosida taqqoslama tahlillar amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat bank tizimining iqtisodiy sohasini samarali to'lov mexanizmlarini yaratish orqali rivojlantirish mumkin. Banklar xizmatlarini amalga oshirishda to'lov tizimlardan foydalanib, iqtisodiyotda tranzaksion xarajatlarini kamaytiradi hamda bank tizimi likvidligini ta'minlash va Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini amalga oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda zamonaviy to'lov texnologiyalari va masofaviy xizmatlar faol rivojlanishi banklarning masofaviy xizmatlarini rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Banklar tomonidan joriy etilgan turli mobil ilovalar va boshqa onlayn kanallar orqali xizmatlar ko'rsatish rivojlanib bormoqda. Aholining kunlik faoliyati banklar bilan chambarchas bog'lanib bormoqda, jumladan, transport, aloqa xizmatlariga, bank kartalari orqali o'tkazmalar va boshqa shu kabilar mijozlarning kundalik hayotida foydalanilmoqda.

Banklarning plastik kartalari bilan amaliyotlarining kengayib borishi masofaviy xizmatlarni rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat etmoqda. Bank kartalarini mobil ilovalarga birlashtirish asosida banklarning aksariyat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, to'lov terminallari va bankomatlar bank xizmatlarini sotishning muqobil kanallaridan hisoblanadi. Bugungi kunda banklar o'rtasida masofaviy onlayn xizmatlar bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, mijozlarni jalb qilish va yuqori daromad olish maqsadida keskin raqobat kurashi bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank xizmatlari bozorida onlayn xizmatlarning rivojlanishi an'anaviy xizmatlarga nisbatan ulushi ortib borayotganligidan ko'rish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, banklar mobil ilovalarining funksional imkoniyatlari kengayib borishi mijozlarni masofaviy identifikatsiyalash zarurligini keltirib chiqardi. Natijada bugungi kunda ko'pgina tijorat banklarida onlayn identifikatsiyadan o'tish xizmatlari joriy etildi.

Banklarning masofaviy xizmatlari bozorini tahlil etishda banklar tomonidan chiqarilgan bank kartalari bo'yicha bozor ulushlarini tahlil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bank kartalari orqali mobil ilovalarga ulanish va bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

5 Paula Cruz-García, Juan Fernández de Guevara, Joaquín Maudos / Bank competition and multimarket contact intensity / <https://doi.org/10.1016/j.jimonfin.2020.102338>

6 Cuiyun Gao, Qian Wang Does digital finance aggravate bank competition? Evidence from China / <https://doi.org/10.1016/j.risaf.2023.102041>



1-jadval. O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan kartalar ulushining banklar kesimida o'zgarishi⁷(foizda).

Bank	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi
Milliy bank	11,6	10,8	10,4	8,9	8,3	-3,3
Sanoatqurilishbank	4,9	5,2	5,9	5,8	5,1	0,2
Asaka bank	10,3	7,6	4,2	3,3	3,0	-7,3
Ipoteka bank	9,7	9,6	10,3	9,2	8,2	-1,5
Agrobank	12,3	12,0	12,5	11,5	9,6	-2,7
Xalq banki	18,8	23,5	20,8	20,3	23,6	4,8
BRB	3,3	2,7	1,7	1,8	1,4	-1,9
Hamkorbank	4,1	3,9	4,4	4,6	4,7	0,6
Aloqabank	2,1	2,9	4,0	3,8	3,7	1,6
Turonbank	2,9	2,4	2,1	1,9	1,4	-1,5
Mikrokreditbank	4,4	3,7	3,7	3,4	3,1	-1,3
Kapitalbank	3,3	2,9	2,1	1,9	1,6	-1,7
Ipak Yo'li bank	4,5	4,3	5,5	6,2	6,1	1,6
Infinbank	1,3	1,5	1,7	1,7	1,6	0,3
Oriyent Finans bank	1,1	1,2	1,7	1,7	1,5	0,4
KDB Bank Uzbekistan	0,3	0,3	0,2	0,2	0,2	-0,1
Trastbank	1,5	0,8	1,1	1,2	1,1	-0,4
Asia Alliance bank	1,3	1,2	1,0	1,1	1,0	-0,3
Davrbank	0,8	0,8	0,8	1,0	0,9	0,1
Garant bank	0,8	0,7	1,0	0,9	1,5	0,7
Universal bank	0,4	0,5	0,7	0,8	0,7	0,3
Ziraat bank	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,0
Ravnaq-bank	0,1	1,3	2,2	2,5	2,3	2,1
Tenge Bank	0,0	0,0	0,1	0,3	0,9	0,9
Saderat bank	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Poytaxt bank	0,0	0,0	0,1	0,1	0,0	0,0
Madad Invest bank	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Avo bank	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
TVS bank		0,0	1,1	2,4	4,3	4,3
Anor bank		0,0	0,5	3,3	4,0	4,0
Apelsinbank		0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Smart bank					0,0	0,0
Apex bank					0,0	0,0
Hayot bank					0,0	0,0
Yangi bank					0,0	0,0
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X

7 Ўзбекистон Республикаси Марказий банки статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.



Tijorat banklarining bank karta xizmatlar bozoridagi faoliyati va raqobat muhiti rivojlanib bormoqda. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan 2023-yilning yakuni bo'yicha Xalq bankining bozordagi ulushi 23,6 foizni tashkil etib, mazkur bozordagi ulushning qariyb 25 foiziga egalik qilishini ko'rish mumkin. Bunda nafaqa pullari, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam va boshqa ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda bank kartalari amaliyotining kengayib borishi bilan izohlanadi. Bank tizimiga so'ngi besh yillikda kirib kelgan Anorbank (raqamli bank) va TVS banklarning bank kartalari bozoridagi ulushi 2023-yil yakunida mos ravishda 4,0 va 4,3 foizni tashkil etib, bozorda o'z o'rnini mustahkamlab olganini ko'rish mumkin. Bunda davlat ulushi mavjud banklarning bank kartalari bozoridagi ulushining qisqarib borishi va boshqa mulk shaklidagi banklarning bozorda faol ish yuritayotganligi bilan izohlanadi.

Tahlilda davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklarni o'zaro taqqoslash orqali holatga aniq baho berish mumkin bo'ladi.

2-jadval. Tijorat banklarining muomaladagi bank plastik kartalarining davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar kesimida o'zgarishi⁸(mln. dona).

Banklar toifasi	O'lchov birligi	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi, marta
Davlat ulushi mavjud banklar	soni	12,4	16,2	16,6	19,7	26,0	2,1
	ulushi	60,2	63,0	61,1	57,5	56,2	-4,0
Boshqa banklar	soni	8,2	9,5	10,5	14,5	20,2	2,5
	ulushi	39,8	37,0	38,9	42,5	43,8	4,0
Jami	soni	20,6	25,7	27,1	34,2	46,2	2,2
	ulushi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan bank karta xizmatlar soni 2023-yilda 46,2 mln donani tashkil etgan va 2019-yilga (20,6 mln dona) nisbatan 2,2 barobarga oshgan. Shundan davlat ulushi mavjud banklarning muomaladagi bank plastik kartalari 2019 yilda 12,4 mln donani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 26mln. tani tashkil etib, tahlil davrida 2,1 martaga oshgan. Boshqa mulk shaklidagi banklarning muomaladagi kartalari soni tahlil davrida 2,5 martaga oshganligi, davlat ulushi mavjud banklarga nisbatan faolligi yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Tahlil davrida bank kartalari xizmatlari bozori davrida davlat ulushi mavjud banklar 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 4 foiz punktga kamayib, 60,2 foizdan 56,2 foizgacha kamaygan. Boshqa mulk shaklidagi banklarning ulushi esa 4 foizga oshgan va bunda asosiy raqamli banklarning kirib kelishi hamda onlayn xizmatlar bozorida o'rnini mustahkamlash maqsadida yangi bank texnologiyalarining kirib kelishi ijobiy ta'sir qilgan.

Bank plastik kartalari bozoridagi raqobat darajasini baholash maqsadida banklarning bozordagi ulushiga ko'ra toifalarga ajratib, tahlil davrida ularning o'zgarishini baholash orqali xulosalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Buning uchun banklarning ulushlari bo'yicha toifalarga ajratib, ularning o'zgarish tahlili amalga

8 Ўзбекистон Республикаси Марказий банки статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Banklar toifasi		31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi
A	Davlat ulushi mavjud banklar	1	1	1	1	1	0
B	Davlat ulushi mavjud banklar	2	2	3	1	0	- 2
	Boshqa banklar	1	0	0	0	0	- 1
C	Davlat ulushi mavjud banklar	0	1	1	2	3	3
	Boshqa banklar	0	1	1	1	2	2
D	Davlat ulushi mavjud banklar	5	4	4	4	4	-1
	Boshqa banklar	7	7	9	10	10	3
E	Davlat ulushi mavjud banklar	2	2	2	2	2	-
	Boshqa banklar	11	14	12	9	13	2
Jami		30	33	33	31	35	5

5 taga ko'payib, raqobat muhitining yaxshilanganligini ko'rish mumkin. Mazkur xizmatlar bozorida ulushi 1 foizdan kam bo'lgan banklar soni tahlil davrida 13 tadan 15 taga yetib bank tizimidagi banklar son jihatdan 40 foizdan ortig'i ushbu toifaga kirgan.

5-jadval. Masofaviy bank xizmatlar bozorida foydalanuvchilar soni o'zgarishi¹⁰(foiz).

Bank	31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi
Milliy bank	16,8	8,6	6,9	5,0	4,8	-12,1
Sanoatqurilishbank	8,1	11,8	13,3	16,0	14,3	6,2
Asaka bank	7,7	5,4	4,7	3,2	2,4	-5,3
Ipoteka bank	2,6	9,7	9,6	7,8	7,7	5,1
Agrobank	14,2	16,9	15,7	14,4	13,8	-0,4
Xalq banki	6,8	15,4	14,5	14,2	10,7	3,9
BRB	0,8	2,1	1,9	1,4	1,0	0,2
Hamkorbank	1,6	6,9	6,5	4,3	4,2	2,6
Aloqabank	1,0	2,7	2,5	2,4	3,8	2,8
Turonbank	2,6	1,5	1,3	1,1	1,3	-1,3
Mikrokreditbank	9,5	5,1	3,8	3,1	3,0	-6,5
Kapitalbank	1,5	1,6	1,7	2,3	3,0	1,5
Ipak Yo'li bank	5,7	4,1	5,1	5,0	5,5	-0,2
Infinbank	2,3	2,1	1,9	1,5	1,0	-1,3
Oriyent Finans bank	1,6	1,7	1,8	1,5	1,4	-0,2
KDB Bank Uzbekistan	0,3	0,2	0,2	0,1	0,1	-0,2
Trastbank	0,1	1,0	1,0	0,8	0,6	0,5
Asia Alliance bank	1,2	1,3	1,2	1,4	1,5	0,3
Davrbank	0,7	0,6	0,6	0,4	0,6	-0,1
Garant bank	11,0	0,5	0,4	0,3	0,3	-10,7
Universal bank	0,4	0,5	0,5	0,4	0,4	0,0
Ziraat bank	3,3	0,1	0,2	0,1	0,2	-3,1
Ravnaq-bank	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1
Tenge Bank	0,0	0,0	0,0	0,1	1,5	1,5
Saderat bank	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Poytaxt bank	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Madad Invest bank	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Avo bank	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
TVS bank		0,0	1,6	3,2	4,7	4,7
Anor bank		0,0	2,9	8,9	8,7	8,7
Apelsinbank		0,0	0,0	0,9	3,3	3,3
Smart bank					0,0	0,0
Apex bank					0,0	0,0
Hayot bank					0,0	0,0
Yangi bank					0,0	0,0
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	X

10 Ўзбекистон Республикаси Марказий банки статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.



5-jadval ma'lumotlarida banklarning masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar soni o'zgarishi keltirilgan. Tahlil davrida yirik banklarning ulushlari qisqarishi yuz bergan bo'lsa, boshqa mulk shaklidagi xususiy banklarning mazkur bozordagi faolligi ortgan. Masalan, Anorbankning bozordagi ulushi 8,7 foiz mijozni qamrab olgani bankning raqamli xizmatlarni joriy etish jarayonlari yuqori sur'atda ekanligini ko'rsatmoqda.

Davlat ulushi bo'lgan Sanoatqurilishbankning bank masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar bozorida ulushi tahlil davrida oshgan bo'lib, 2019 yilga nisbatan 6,3 foizga oshgan. Bu esa Sanoatqurilishbankda yangi bank texnologiyalarining joriy etilishi jadal ekanligi va bankning asosiy maqsadlaridan biri ushbu yo'nalish bo'yicha ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Xalq bankining masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar soni tahlil davrida 3,9 foizga oshgani ijobiy, ammo bankning so'nggi 4 yillik pasayishni namoyon etgani salbiy holat hisoblanadi. Xuddi shu singari Ipoteka bankida masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar salmog'i beqaror bo'lgan va tahlil davrida 5,1% ga o'sishga erishilgan. Aloqabank va Hamkorbankda mazkur yo'nalishda faoliyat yaxshi yo'lga qo'yilgani sababli mazkur banklardagi mijozlar salmog'i tahlil davrida mos ravishda 2,8 va 2,6 foizga o'sish kuzatilgan.

Tahlil davrida eng yuqori kamayish Milliy bankda kuzatilib, bankning masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy va yuridik mijozlari 12,1 foizga kamaygan. Bank tomonidan yetarli choralar ko'rilmasa, kelgusida ushbu holat yanada kamayishni keltirib chiqarib, bank faoliyatida jiddiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu kabi holatlar Asaka bankda 5,3 foizga, Mikrocreditbankda 6,5 foizga va Garant bankning bozordagi ulushi 10,7 foizga pasayishi kuzatilgan.

Tenge bankning mijozlar uchun masofaviy xizmatlarini rivojlantirish orqali mijoz bazasini oshirayotganligini ko'rish mumkin, ya'ni bank 2023-yilning o'zida ushbu bozordagi ulushini qariyb 1,5 foizga yetkazishi ijobiy hisoblanadi.

6-jadval. Masofaviy bank xizmatlardan foydalanuvchi jismoniy shaxs mijozlarning bank toifalari bo'yicha ulushlar taqsimoti¹¹.

Banklar toifasi		31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o'zgarishi
A	Davlat ulushi mavjud banklar	1	2	1	1		- 1
	Davlat ulushi mavjud banklar	1	1	2	2	3	2
B	Boshqa banklar	1					- 1
	Davlat ulushi mavjud banklar	3	2	2	1		- 3
C	Boshqa banklar	2	2	2	1	3	1
	Davlat ulushi mavjud banklar	2	4	4	5	4	2
D	Boshqa banklar	6	5	7	8	8	1
	Davlat ulushi mavjud banklar	4	2	2	2	3	-1
E	Boshqa banklar	10	15	13	11	14	4
	Jami	30	33	33	31	35	5

Tahlil davrida "A" toifaga kirgan, ya'ni masofaviy bank xizmatlardan foydalanuvchi jismoniy shaxs mijozlar bozordagi ulushi 15 foizdan yuqori davlat ulushi mavjud banklarida mavjud Sanoatqurilishbank 2023-yilgacha yetakchi bo'lgan bo'lsa, 2023-yildagi kamayish uning bozordagi o'rnini pasaytirgan. Tahlil davrida "V" toifadagi, 10-15 foizni tashkil etadigan banklar soni davlat ulushi mavjud banklar 2 taga ortgan bo'lsa, boshqa mulk shaklidagi banklarning soni 1 ta kamaygan.

"S" toifadagi banklar ulushining qisqarishi davlat ulushi mavjud banklarning qisqarishi hisobiga yuz bergan va ularning soni 2019-yilda 5 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunida 3 ta qolgan va uchalasi ham boshqa mulk shaklidagi banklardan iborat. Bozordagi "D" toifadagi 1-5 foiz ulushga ega banklar sonining ortishi davlat ulushi mavjud banklar 2 ta va boshqa banklar 1 taga oshgani bilan izohlanadi.

11 Ўзбекистон Республикаси Марказий банки статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.



Tahlil davrida “Ye” toifaga kirgan, ya’ni bozordagi ulushi 1 foizdan kam bo’lgan banklar soni 14 tadan 17 taga qadar oshgan hamda ushbu 17 ta bankning jami bozordagi ulushi 4 foizni tashkil etgan.

Masofaviy bank xizmatlardan foydalanuvchi jismoniy shaxs mijozlarning soni 2019-yilda 946,3 mingtani tashkil etgan bo’lsa, 2023-yil yakunida 42,8 mlnga yetgan hamda tahlil davrida ushbu mijozlar soni 45 barobarga oshgan. Bunda bir mijoz bir vaqtning o’zida bir nechta bankning ilovalaridan foydalanishi hisobiga son jihatdan yuqori o’sish kuzatilgan.

Banklarning mobil ilova dasturlari orqali jismoniy shaxslarning masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirgan operatsiyalari hajmi hisobot yilida 250,1 trln so’mni tashkil etdi. Banklar mobil ilovalari orqali amalga oshirilgan onlayn depozit operatsiyalari hajmi – 46,5 trln. so’m, onlayn konversiya amaliyotlari – 27,4 trln. so’m, onlayn mikroqarzarlar – 13,3 trln so’m va kreditlarni so’ndirish hajmi – 15,3 trln. so’mni tashkil etdi¹².

7-jadval. Masofaviy bank xizmatlardan foydalanuvchi yuridik shaxs mijozlarning bank toifalari bo’yicha ulushlar taqsimoti¹³.

Banklar toifasi		31.12.19	31.12.20	31.12.21	31.12.22	31.12.23	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o’zgarishi
A	Davlat ulushi mavjud banklar			1	1	1	1
	Boshqa banklar	2	3	1	1		-2
B	Davlat ulushi mavjud banklar	2	2	3	3	4	2
	Boshqa banklar		1	1	1	1	1
C	Davlat ulushi mavjud banklar	5	4	4	4	3	-2
	Boshqa banklar	8	9	8	9	9	1
D	Davlat ulushi mavjud banklar	2	2	2	2	2	-
	Boshqa banklar	9	12	13	10	14	5
Jami		30	33	33	31	35	5

Masofaviy bank xizmatlardan foydalanuvchi yuridik shaxs mijozlarning “A” toifaga kirgan, ya’ni bozordagi ulushi 15 foizdan yuqori davlat ulushi mavjud banklarida mavjud Agrobankka tegishli bo’lib, uning bozoridagi ulushi 2023-yilda 15,1 foizni tashkil etgan. Tahlil davrida Agrobankning ulushi 13,9 foizdan 15,1 foizga qadar oshgan. “V” toifadagi, bozordagi ulushi 10-15 foizni tashkil etadigan banklar soni davlat ulushi mavjud banklar 2 taga va boshqa mulk shaklidagi banklarning soni 1 ta kamayishi hisobiga jami 3 taga kamaygan. Tahlil davrida “S” toifaga kiruvchi banklar soni jami 3 taga oshgan bo’lib, 2023-yil yakunda davlat ulushi mavjud banklar 4 ta va boshqa banklar 1 tani tashkil etgan.

Tahlil davrida banklarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik shaxs mijozlari oshib borgan va 2023-yilda 1 339 mingtadan oshgan. Bu esa 2019-yildagi 619 mingta mijozga nisbatan 2023-yilda 2,2 barobarga ortganligini ko’rsatadi.


Mamlakatimizda aholi uchun bank xizmatlarini (omonat va konversiya amaliyotlari, mikroqarzar olish, bank kartasiga buyurtma berish, identifikatsiyadan o’tish) onlayn rejimda bajarish imkoniyati, tadbirkorlik subyektlari uchun esa to’lovlarni hisob-kitob terminallaridan tashqari QR-kod, NFC va boshqa kontaktsiz to’lov texnologiyalarini qo’llagan holda qabul qilish rivojlanib bormoqda.

¹² Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг 2023 йил учун йиллик ҳисоботи маълумотлари. / <https://cbu.uz/upload/medialibrary/c2e/jcu9sa4tbwawr6xfqqnyn4ivpbc7s2l1/Yillik-hisobot-2024.pdf>

¹³ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.



Mobil ilovalari orqali foydalanuvchilar sonini alohida banklar misolida tahlil qilish va uning bank daromadligiga ta'sirini baholash muhim hisoblanadi. AT Aloqabankning "Zoomrad" mobil ilovasi foydalanuvchilari o'zgarishini ko'rib chiqamiz.




1-rasm. AT Aloqabankning Zoomrad ilovasi aktiv foydalanuvchilar soni o'zgarishi¹⁴, (ming birlik).

AT Aloqabankning "Zoomrad" mobil ilovasi aktiv foydalanuvchilari soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 1,9 mln foydalanuvchiga yetgan va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 226 foizga o'sgan. "Zoomrad" mobil ilovasi bugungi kunda bank tizimidagi foydalanuvchilar va yuklanishlar soni bo'yicha reytingi yuqori ilova hisoblanadi.

Shuningdek, AT "Aloqabank"da bank to'lov tizimlarini "Sello" savdo maydonchasi (marketpleys) bilan integratsiya qilinib, ishlari yakunlangan. "Sello" savdo maydonchasining barcha onlayn to'lovlari bankning maxsus moduli orqali amalga oshirilmoqda. 2023 yil iyulida AT "Aloqabank"ning "Zoomrad" mobil ilovasida "Sello" savdo maydonchasi tovarlarini xarid qilish imkoniyati yaratildi.

AT "Aloqabank"ning "Zoomrad" mobil ilovasidan foydalanuvchi mijozlarning jami chakana mijozlar tarkibidagi o'zgarishidan uning qay darajada rivojlanishiga baho berish mumkin bo'ladi.




2-rasm. AT "Aloqabank"ning Zoomrad foydalanuvchilarining jami chakana mijozlar tarkibidagi ulushi dinamikasi¹⁵, (foizda).

Bankning "Zoomrad" mobil ilovasidan foydalanuvchi mijozlarning jami chakana mijozlar tarkibidagi o'zgarishi 2024-yil 1-yanvar holatiga

50 foizga yetgani, ya'ni jami mijozning qariyb yarmini tashkil etishi ijobiy hisoblanadi va bu shiddat bilan o'sib bormoqda. Natijada bankning foiz daromadlari salmog'iga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bank xizmatlari bozorida raqobat kurashi sharoitida yuqori samaradorlikni ta'minlash maqsadida foizsiz daromatlarni oshirish talab etiladi. Banklarning foizsiz daromadlari kamida 40 foiz bo'lishi kelgusida bank xizmatlar bozoridagi yuqori samaradorlikni ta'minlashi mumkin.

¹⁴ AT Aloqabank hisobot maълumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

¹⁵ AT Aloqabank hisobot maълumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



3-rasm. AT "Aloqabank"ning foizsiz daromadlarining jami daromadlar tarkibidagi ulushi dinamikasi¹⁶, (mlrd. so'mda).

Jumladan, AT Aloqabankning 2024-yil uchun mo'ljallangan Bank-rejasiga muvofiq bank daromadini 1,23 barobarga o'sishini ta'minlagan holda jami 4 191 mlrd. so'mga yetkazish rejalashtirilgan bo'lsa, foizsiz daromatlari 1 650 mlrd. so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bankning moliyaviy natijalari tahlili asosida foiz daromadlarning jami daromadlaridagi ulushi 2024-yil yanvar holatiga 45,1 foizni tashkil etdi. Buning natijasida bankning samaradorlik ko'rsatkichlari ortishiga erishildi. Xususan, bankning 2023-yil bo'yicha kapital rentabelligi 28,4 foizni va aktivlar rentabelligi 3,7 foizni tashkil etdi. Natijada bankning 2023-yil yakuni bo'yicha olgan sof foydasi 607 mlrd. so'mni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar va tahlillar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Banklarning masofaviy onlayn xizmatlari mijozlar uchun bank xizmatlari va mahsulotlarini solishtirishni osonlashtiradi, banklar xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytiradi hamda banklarga yangi bozorlarga chiqish va shu orqali ularning geografik qamrovini kengaytirish imkonini beradi.

2. Tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish foizsiz daromadlarni oshirishning muhim manbai hisoblanadi. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish orqali mijoz bazasini kengaytirish va bankning operatsion xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

3. Banklarning masofaviy xizmatlari mijozlar uchun bir qator qulayliklar va banklar uchun yangi biznes imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin bo'lsada, banklarda risklarni ortishining asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi.

4. Onlayn xizmatlarning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari bo'lib, bank xizmatlarini taqdim etishda yangi texnologiyaga tayanish kiberxavfsizlik va tizim xavfsizligini ta'minlash asosiy vazifa bo'lib qoladi. Xavfsizlikka tahdidlar tashqaridan kelib chiqadi, ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini, shuningdek, tizim va ma'lumotlarning yaxlitligini kafolatlash uchun banklarda zarur dasturiy yechimlar bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari, bankning xavfsizligini va tizimni buzish bank obro'siga putur yetkazib, bank qanchalik onlayn xizmatlar ko'rsatish tarmog'ini kengaytirgan bo'lsa, reputatsiya riski shunchalik katta bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anna Omarini The Changing Landscape of Retail Banking and the Future of Digital Banking https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-16-7830-1_8.
2. Risman A., Mulyana B., Silvatika B. and Sulaeman A. (2021). The effect of digital finance on financial stability. 11(7), 1979–1984. doi:10.5267/j.msl.2021.3.012.

¹⁶ AT Aloqabank hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



3. Paula Cruz-García, Juan Fernández de Guevara, Joaquín Maudos / Bank competition and multimarket contact intensity / <https://doi.org>
4. Cuiyun Gao, Qian Wang Does digital finance aggravate bank competition? Evidence from China / <https://doi.org>
5. Интернет маълумотлари:
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПФ-5992-сон Фармони. <https://lex.uz>
7. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ҳисобот маълумотлари.
8. www.cbu.uz
9. www.lex.uz

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

